



THE EMERGENCE OF THE ISSUE OF ACHIEVING A BALANCE BETWEEN NATIONAL AND REGIONAL INTERESTS IN POLITICS

Ruzimat Jurayev

*Professor, Doctor of Political Sciences
Namangan State University
Namangan, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: "territorial interests", "general law and order", territory, region, "center-regions", "center-regions".

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: This article discusses the emergence, formation, and development trends of the issue of achieving a balance between national and regional interests in socio-political sciences.

SIYOSATDA UMUMDAVLAT VA HUDUDIY MANFAATLAR MUTANOSIBLIGIGA ERISHISH MASALASINING VUJUDGA KELISHI

Ro‘zimat Jo‘rayev

*Professor, Siyosiy fanlari doktori
Namangan davlat universiteti
Namangan, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “hududiy manfaatlar”, “umumiyluq huquq-tartibot”, hudud, mintaqalari, “markaz-mintaqalar”, “markaz-hududlar”.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy fanlarda umum davlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga erishish masalasining vujudga kelishi, uning shakllanishi, rivojlanish tendensiyasi xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ДОСТИЖЕНИЯ БАЛАНСА НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ В ПОЛИТИКЕ

Розимат Жураев

*Профессор, доктор политических наук
Наманганский государственный университет
Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «территориальные интересы», «общий правопорядок»,

Аннотация: В данной статье представлены мнения о возникновении

территория, регион, «центр-регионы», проблемы достижения баланса «центр-регионы». национальных и региональных интересов в общественно-политических науках, ее становлении, тенденциях развития.

XXI asrga kelib inson, jamiyat va davlat munosabatlarining murakkablashuvi yangi-yangi institutlarning shakllanishida namoyon bo‘lmoqda. Demokratik rivojlanish sharoitida o‘z-o‘zini boshqarishning kengayishi hududiy jamoalarni siyosatning faol subyektlariga aylantirib, umumdavlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga erishish masalalarini dolzarblashtirmoqda. Tabiiyki, bunday munosabatlarning xilma xil qirralari ijtimoiy fanlar, jumladan siyosiy fanlarning tadqiqot obyektini tashkil etadi. Lekin bugungi kunga qadar O‘zbekistonda va, hatto, xorijiy davlatlarda ham “hududiy manfaatlar” tushunchasining, uning inson, jamiyat va davlat manfaatlari sintezini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab tizimdagи o‘rni yetarli darajada o‘rganilmagan yuksak amaliy ahamiyatga molik ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Bugun “hududiy manfaatlar” degan tushuncha amaliyotda tez-tez qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, uning mazmuniy yuklamasi, siyosiy-amaliy ahamiyati, ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni bilan bog‘liq tasavvurlar anchagina mo‘rt, ayrim hollarda esa, mavhum bo‘lib qolmoqda. Holbuki, ayrim olimlarning fikrini qo‘llab-quvvatlab aytish mumkinki, jamiyatni ongli boshqarishga o‘tish turli manfaatlarni farqlash va ularni hisobga olishni taqozo etadi [1]. Bu esa, “manfaat” tushunchasining ijtimoiy fikr tarixida tutgan benihoya muhim o‘rni, uning ijtimoiy va individual harakatlarning real sababi sifatida namoyon bo‘lishidan kelib chiqadi. Ikkinchi tarafdan, davlat boshqaruvining demokratik mezonlarga muvofiq taraqqiy etishi umummilliy, ya’ni davlat, jamiyat va individual manfaatlarning o‘zaro mutanosibligiga intilishni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondan iboratdir. Demak, aynan davlat boshqaruvining ana shunday taraqqiyoti tahlili hududiy manfaatlarning tub mohiyatini anglash imkonini beradi.

Uzoq o‘tmishdan ma’lumki, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni mutanosiblashtirish masalasi demokratiyaning mazmunini tashkil etib, bu masala ilk bor qadimgi Yunonistonda ko‘tarilgan. Yunon olimlari tomonidan “polis, ya’ni davlat barchaning umumiyl ishi” (Demokrit), “inson – barcha narsaning mezoni” (Protagor), tabiiy huquqlar, tabiatdan barchaning tengligi (Antifont) g‘oyalari ilgari surilib,adolatni ta’minalash va ideal davlat mezonlari (Platon, Aristotel va boshqalar) ishlab chiqildi. Aristotel inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish g‘oyalarni tadqiq qilib, huquqni manfaatlarni ifoda etish sohasi deb, uni tabiiy va idrok asosida shakllantirilgan sohalarga ajratdi.

Yunon olimlari tomonidan “pozitiv” – odamlar uyushmasi, davlat tomonidan o‘rnatalgan huquqlar va “tabiiy” – inson tabiatidan kelib chiqadigan huquqlarga asoslanish g‘oyalarning ilgari surilgani asta-sekin shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarni bir-biridan farqlab, ularni mutanosiblashtirish ehtiyojlarini tiniqlashtirib berdi. Epikur (m.a. 341-270 y.y.) ta’biri bilan

aytganda, insonlarning tabiiy erkinliklarini odilona amalga oshirish ularning “foyda to‘g‘risidagi kelishuvi”, qat’iy harakatlarisiz amri maholdir [2]. Bu bilan umumiy manfaatlarni belgilash, ya’ni ommaviy qarorlarni qabul qilishda barcha individlar ishtirokining, ya’ni umumiy va individual manfaatlarning mutanosibligiga erishish zarurligi e’tirof etildi.

Yunon olimlarining individual va umumiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish yuzasidan bildirgan fikrlari Rim olimlari tomonidan yanada rivojlantirildi. Xususan, faylasuf Mark Tulliy Sitseron (m.a. 106-43 y.y.) davlatga “umumiy huquq-tartibot” sifatida mohiyatan insonlarning tabiiy huquqi”[3] deb qaraydi. Shu asosda uning ta’limotida qonun ustuvorligi, qonunlarda esa, umumiy va individual manfaatlarning mutanosibligiga erishish masalalari atroflicha yoritilgan. Umuman, Rim huquqshunoslari tomonidan tabiiy va pozitiv huquqlar g‘oyalari umumlashtirilib, hech narsa jamiyat va inson tabiatiga, xususan, manfaatlariga zid bo‘lmasligi, aks holda, ularning yo‘q bo‘lib ketishi haqidagi fundamental g‘oya olg‘a surildi. Insoniyat tarixi, xususan, Yunon shahar-davlatlari va Rim (respublikasi)ning taqdiri ushbu g‘oyani tasdiqlashiga qaramay, bugungi kunda ham inson va jamiyat tabiatni, manfaatlari, ularni aniqlash usullarini belgilashda umumiy yondashuvlar qaror topmagan.

Yunon va Rim mutafakkirlari ta’limotlarida inson manfaatlari uning tabiiy huquqlarida ifodalanib, davlat hayotini belgilagan qonunlarda ifodalash zarurati, aks holda bunday davlatning inqirozga uchrashi asoslab berildi. Lekin davlatning katta qismini tashkil etgan insonlar, ya’ni qullar va boshqa fuqaro bo‘lмаган insonlarning tabiiy huquqlari turli omillar ta’sirida inobatga olinmadi. Shuningdek, Rim davlatining kengayib ketishi fuqarolarning ommaviy qarorlarni qabul qilishdagi ishtirokini ta’minalash imkonini bermadi. Bu va ayrim boshqa sabablarga ko‘ra, yunon-rim madaniyati inqirozga uchrasa ham, uning yuksak g‘oyalari davlat va jamiyat qurilishining tamoyillarini belgilab berdi.

Yunon-rim mutafakkirlarining ta’limotlari Sharq va G‘arb madaniyatlarda adolat, odil boshqaruv, umuman umumbashariy qadriyat bo‘lgan inson huquqlari, demokratiya g‘oyalarining shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. XII–XIV asrlarda yunon-rim huquqining G‘arbda retsepsiya bo‘lishi shaharlarda o‘zini o‘zi boshqarish, ya’ni fuqarolarning shahar ishlarini boshqarishdagi keng ishtiroki demokratik g‘oyalarning tiklanishi va ro‘yobga chiqishiga zamin yaratdi. Lekin inson va jamiyat, uning tabiatiga doir turli qarashlar, ularning manfaatlarini aniqlash va davlat taraqqiyotidagi ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keldi. Bunga adolat g‘oyasi shior qilinib, inson va jamiyat tabiatiga zid bo‘lgan qarashlar va siyosiy rejimlarning taqdiri misol bo‘la oladi.

Utopik sotsialistlar T. Mor (1478–1535), T. Kampanella (1568–1619), A. de Sen-Simon (1760–1825) va boshqalar ilgari surgan g‘oyalari, ya’ni ideal jamiyat g‘oyasining jamiyat va inson tabiatiga ziddigi, ayniqsa, uning kuch bilan joriy etishga intilish millionlab insonlar manfaatlarining toptalishiga, jamiyat taraqqiyotining chuqur turg‘unlikka tushib qolishiga sabab

bo‘ldi. Shu tufayli, har qanday ta’limotga shaxs va jamiyat manfaatlari, ularning mutanosibligi nazaridan baho berish va o‘rganish taqozo etiladi.

D. Lokk, J. J.Russo, F. Gegel, va boshqa liberal g‘oyalar tarafda lorining tadqiqotlarida utopik va boshqa qarashlarni inkor etuvchi davlat va jamiyat qurilishining obyektiv konsepsiysi ishlab chiqildi, ijtimoiy taraqqiyotda inson, jamiyat va davlat manfaatlari tushunchasi, ularning mazmunini belgilash va mutanosibligiga erishish yo‘llari yoritildi. Masalan, G.Gegel insonlar harakati ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlaridan kelib chiqishini ta’kidlaydi [4]. Uning fikricha, manfaat mazmunini subyekt faoliyatini qondirishga qaratilgan havas-intilishlar tashkil qiladi. Shu tufayli, hech narsa manfaatdan tashqarida amalga oshirilmaydi. U umumiy va shaxsiy manfaatlar mutanosibligiga erishishga jiddiy ahamiyat beradi. Uning fikricha, “agar fuqarolarning xususiy manfaatlari davlatning umumiy maqsadlari bilan birlashsa, ular bir-biridan qoniqish hosil qilsa, davlat obod va o‘z-o‘zidan kuchli bo‘ladi – bu prinsip o‘z-o‘zidan oliv darajada muhimdir”. Ushbu prinsipni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat institutlarining shaklanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, shaxsiy, umumdavlat, ommaviy, milliy, ijtimoiy, hududiy va boshqa manfaatlarning farqlanishidagi xilma-xil qarashlar, obyektiv ravishda, ularning mutanosibligini o‘rganish ilmiy apparatini qiyinlashtirmoqda. Ilmiy muloqotda davlat manfaatlarining xalqaro ommaviy va xususiy huquqda, ya’ni milliy suverenitet va manfaatlarni amalga oshirishda mavjudligi, ya’ni davlat va milliy manfaatlarning bir ma’noni anglatishi [5] e’tirof etiladi. Shu tufayli, ko‘pincha, jumladan bizning amaliyotimizda ham, milliy va davlat manfaatlarini belgilash uchun umumdavlat manfaatlari tushunchasi qo‘llanilishi mantiqan to‘g‘ridir.

Umumdavlat manfaatlari esa, jamiyatda boshqa, xususan hududiy manfaatlarini qamrab oladi. O‘z navbatida, jamiyat manfaati, ya’ni insonlar hamjamiyati manfaatlari ommaviy manfaatni tashkil etadi. Individual manfaatlar inson huquqlarida o‘z ifodasini topib, ularni amalga oshirish masalalari ommaviy manfaatlarni tashkil qiladi hamda umumdavlat va boshqa manfaatlarda aks etadi. Bundan ommaviy manfaatlarni shakllantirish jamiyatdagi turli manfaatlarni uyg‘unlashtirish, ularning mutanosibligiga erishish lozimligi ayon bo‘ladi.

Individual manfaatlar inson huquqlarida o‘z aksini topgan va ommaviy manfaatni tashkil etsa ham, barchaning ulardan teng foydalanishga intilishi turli manfaatlar, qarashlar va tuzilmalarning shakllanishiga olib keladi. Darhaqiqat, manfaatlar umumiyligining o‘zida ichki qarama-qarshiliklar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish sifat jihatidan yangi, boshqa manfaatning shakllanishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasining yuksalishiga qarab, jamiyat va shaxs manfaatlari tobora murakkablashib va muayyan tuzilish kasb etib boradi. Demak, jamiyatda vujudga kelayotgan har qanday institut, xususan, hududiy manfaatlarni ifodalovchi hudud ommaviy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu

jihatdan “hudud” tushunchasini o‘rganish uning ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini anglash imkonini beradi.

Hududlar, ularning manfaatlarini o‘rganish, avvalo, “hudud” tushunchasini aniqlashtirishni taqozo qiladi. O‘zbek tilidagi “hudud” so‘ziga lug‘atda “chegara”, “had” deb ta’rif berilgan [6]. Xorijiy so‘zlar va so‘z birikmalarining eng yangi lug‘atida “hudud” (lot. Territorium–J. R.) so‘ziga: 1) chegaralari aniq bo‘lgan yer, havo, ichki va qirg‘oq bo‘yi suvlarining makoni; 2) koloniyalardagi maxsus ma’muriy birlik; 3) ba’zi federativ davlatlardagi federatsiya tarkibiga to‘liq kirmagan, alohida maqomga ega bo‘lgan ma’muriy okrug deb ta’rif berilgan. Ko‘rinib turganidek, mazkur ta’rif ham “hudud” so‘zining hozirgi zamondagi siyosiy ma’nosini to‘liq aks ettirmaydi.

To‘g‘ri, “Hudud” tushunchasi mamlakatning bir qismi sifatida davlatlar shakllanishi bilan vujudga kelgan. Lekin u bugungi kundagi ma’noda, ya’ni muayyan manfaatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tuzilma sifatida ilk bor XIX asr boshlarida amerikalik olimlar U. Tomas va F. Znaneki tomonidan ishlatalgandir. ularning fikriga ko‘ra, yangi shakllangan institutlar (kommuna va h.k.-J.R.) muayyan manfaatlarni ro‘yobga chiqarish uchun tuziladi va jamiyat ishlarida ishtirok etadigan odamlar uyushmasini tashkil qiladi. Shu tufayli, yangi institut birlamchi dehqonlar uyushmasi bilan ikkilamchi milliy tizim o‘rtasida vositachi vazifasini o‘taydi.

U.Tomas va F.Znanekilar olg‘a surgan fikrda hudud tushunchasi to‘la shakllanmagan bo‘lmasa-da, uning ijtimoiy vazifasi, ya’ni turli manfaatlarni uyg‘unlashtirib, umum davlat manfaatlarida aks etishga xizmat qilishi o‘z ifodasini topgan deyish mumkin. Muayyan hududning o‘z ijtimoiy vazifasini bajarishi hududdagi barcha aktorlarning umum davlat qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokining ta’minalashini, ya’ni keng avtonomiya ga, o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga ega bo‘lishini taqozo qiladi. Shundan kelib chiqib, hudud ta’rifiga qo‘sishimcha qilib, “hudud – davlatning hududiy siyosiy tashkil etish birligi” va “hudud – aholining o‘z-o‘zini boshqaradigan makon” ta’riflarini berish mantiqan to‘g‘ri bo‘lur edi.

Hududlarning avtonomligi, ya’ni o‘zini o‘zi boshqarishini ta’minalash jarayonlari unitar markazlashgan davlatlarning nomarkazlashgan (O‘zbekiston, Fransiya), mintaqaviy (Italiya, Ispaniya) va avtonom hududlarga ega bo‘lgan (Yaponiya) davlatlar turlarini shakllanishiga olib keldi. Bunday o‘zgarishlar “markaz–hududlar” o‘rtasidagi munosabatlarning davlat hokimiyatini vertikal bo‘linishi asosida tashkil etish g‘oyalari bilan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda [7]. Lekin, mazkur masalalar yetarli darajada o‘rganilmayotgani, ba’zida, hatto, noto‘g‘ri talqin qilinayotgani demokratlashtirish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, federatsiyaga uning subyektlari davlat tarkibidan chiqib ketish huquqiga ega deb, mintaqaviy davlatni unitar shakldan federatsiyaga o‘tish jarayoni sifatida ta’riflanishi hududiy o‘z-o‘zini boshqaruvini rivojlanishiga to‘siq bo‘lishi tabiiy.

Shuningdek, davlatning hududiy tashkil etilishida faqat markaz va mintaqalar o'rtasidagi hokimiyat munosabatlari tartibga solinadi hamda boshqa hududiy birliklarning siyosiy jarayondagi roliga e'tibor berilmasiligi e'tirozlidir. "Mintaqa" tushunchasining lotincha (region) dan kelib chiqqan bo'lib, tabiiy yoki tarixiy shakllangan, nisbatan barqaror iqtisodiy-geografik va boshqa xususiyatlari, ko'pincha, aholining milliy tarkibiga moslashgan viloyat, joy, mamlakatning bir qismidir deb e'tirof etilishi uning hokimiyat munosabatlaridagi maqomini oshirishi tabiiy. Lekin har bir hududning o'z oldidagi ijtimoiy vazifasini bajarishi uchun nafaqat "markaz-mintaqalar", balki barcha hududlar manfaatlarini mutanosiblashtirish vazifasini qo'yadi.

Hududlardan "mintaqa"ga ko'proq e'tibor berilgani tufayli, uning mazmunini kengaytirish holatlari, ya'ni mazkur tushuncha ostida viloyat, hududiy tuzilma va alohida shahar, shu jumladan kichik shaharni ham tushunish mumkin degan fikrlar mavjud. Bu fikrda barcha hududiy birliklar hokimiyat munosabatlarida bir xil maqomga egaligi e'tirof etilsa-da, mintaqqa va quyi hududiy birliklar ommaviy hokimiyat munosabatlarida o'z o'rniga ega. Quyi mahalliy hokimiyat organlarining mintaqqa hokimiyat organlarini tiyib turish funksiyasi bugungi kunda ko'p davlatlarda ommaviy boshqaruvning ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [8]. Shu tufayli, har bir hududiy birlik maqomini aniq belgilash, uning manfaatlarini ifoda etish va umum davlat manfaatlar bilan uyg'unlashtirishning muhim shartiga aylanadi.

"Mintaqa" tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, unga anqlik kiritilishi lozimligi doimo ta'kidlanib kelinadi. "Mintaqa", odatda, quyidagi ikki ma'noda qo'llaniladi: mamlakatning sharoiti yoki biror xususiyati bilan ajralib turadigan qismi hamda irqiy yoki etnik tarkibi, madaniy an'analari mushtarak bo'lgan bir-biriga yaqin joylashgan mamlakatlar guruhi. Bu ta'rifda ham ikki turli institutni bir xil nom bilan atash tufayli ularning mohiyatini to'liq ifodalamaslikka olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni farqlash uchun "mintaqa" va "submintaqa" tushunchalaridan foydalanish taklif etilayotgan bo'lsa-da, amalda hanuzgacha asosan "mintaqa" atamasigina ishlatalmoqda.

Yuqorida "hudud" tushunchasiga keltirilgan ta'rifdan uning shakllanishi uchun insonlarda zarurat hissini paydo bo'lishining o'zi yetarli emasligini anglash mumkin. Hudud ularning manfaatlarini amalga oshirish yagona boshqaruv tuzilmalari mavjudligini taqozo qiladi. Lekin, shunga qaramay, ko'pchilik yondashuvlarda mintaqqa davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi bilan bog'lanmaydi. To'g'ri, amalda bir necha hududiy birlikning tabiiy sharoiti va boshqa xususiyatlari o'xhash bo'lishi tabiiy. Bunga O'zbekistonda Farg'ona vodiysini misol keltirish mumkin. Ammo mazkur hudud yagona boshqaruv tuzilmasiga ega bo'limganligi tufayli, uni mintaqqa deb nomlash mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bunday hududda aholining manfaatlarini ifoda etadigan va amalga oshiradigan umumi mexanizm mavjud emas. Bundan ma'muriy-hududiy birliklarni hududlar deyish mantiqan to'g'riroqdir, degan xulosa kelib chiqadi.

Mintaqalarni tuzishda hududning sharoiti, iqtisodiy, madaniy, kommunikatsion va boshqa yaqinlik, o‘xshashlik, ya’ni aholining umumiy manfaatlari asosida tashkil etish navbatdagi masalaga aylanadi. Bu haqda ayrim tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan “O‘zbekiston Respublikasidagi viloyatlar o‘z hududining hajmi, aholisining miqdori, jamoa va davlat xo‘jaliklarining soni, ijtimoiy-madaniy muassasalari va boshqalari bo‘yicha turlichadir. Xilmallik tabiiy, chunki viloyat o‘z markazi va ma’muriy rahbarlik bilan bog‘liq tuman va shaharlarning oddiy yig‘indisidangina iborat bo‘lmay, o‘z ichiga mavjud iqtisodiy va madaniy, markaziy, tabiiy intilishiga asoslanadigan ma’lum hududiy kompleksni qamrab oladi”[9] degan fikrga qo‘shilish mumkin. Bunda hududiy boshqaruvning ilmiy asoslarini shakllantirish lozimligiga urg‘u beriladi.

Hududlarni siyosat subyektiga aylanish jarayoni siyosiy jarayonlarda hudud dolzarbligini oshirib, bunda hududiy manfaatlarni aniqlash metodologik muammolardan biri hisoblanadi. Rus siyosatshunosi R. Turovskiy fikriga ko‘ra, hududiy manfaatlар muayyan hududdagi turli manfaatlarning sintezini tashkil etib, ularni etnik yoki boshqa tusdagi manfaatlар bilan adashtirish mumkin emas [10]. Bunga erishish esa, hudud aholisining o‘z xususiyatlarini anglashi va ularni umum davlat manfaatlарida aks ettirishda siyosiy faol bo‘lishni taqozo qiladi. Aynan shunday hududiy jamoalar hududiy manfaatlarni shakllantirishga, ularni umum davlat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladilar.

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan, huquqiy, demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etishdek ulkan vazifalarni hal etishga jamiyatimiz a’zolarining ijodiy imkoniyatlarini to‘liq jalb etish uchun inson faoliyatini faollashtirishning yo‘llari va shakllarini hamda jamiyat qonunlarining amal qilishida ijtimoiy manfaatlarning o‘rni va rolini ochib berishi zarur. Zero, jamiyat qonunlarining amal qilish mexanizmi, ya’ni, ular faqat ijtimoiy subyektlar: birlik, guruh, institutlar faoliyati tufayli vujudga kelishi, mavjud bo‘lishi hamda faoliyat ko‘rsatishini, inson faoliyatining asosiy omili bo‘lgan ijtimoiy manfaatlар masalasini o‘rganish islohotlar jarayonlarining muhim jihatlarini ochib beradi.

Ijtimoiy manfatlarning umum davlat manfaatlarda uyg‘unlashishiga hududiy manfaatlarning ta’siri juda katta. Bugungi kunda mintaqaviy manfaatlarni inobatga olmasdan milliy iqtisodning samarali rivojlanishi mumkin emasligi ta’kidlanib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijtimoiy va siyosiy tusdagi muammolar bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilmoqda. Chunki ayrim tadqiqotchilar tomonidan mintaqaviy manfaatlarni aniqlashda barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar manfaatlari qamrab olinib, ularning fikricha, mintaqaviy manfaatlар muayyan mintaqaning iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi manfaatlар, shuningdek unda yashovchi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarning o‘zaro ta’siridan iboratdir.

Shunday qilib, manfaat insonda aniq maqsadlarning shakllanishiga, ularga erishish va o‘z ehtiyojlarini qondirishning optimal yo‘llarini qidirish nuqtai nazaridan mavjud voqelikni baholashga asos yaratadi. Manfaat voqelik predmetlarini ijtimoiy subyekt ehtiyojlariga yaqinlashtirishga qaratilgan bo‘lib, insonlarning muayyan voqelikka moslashtirishga yo‘naltirilgan turtki sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, davlat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar ortidagi manfaatlarni anglash hamda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi va rivojiga xizmat qilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yunon va Rim mutafakkirlari ta’limotlaridan inson manfaatlarini ta’minalash, ularni umum davlat manfaatlarida ifoda etish hamda o‘zaro mutanosibligiga erishish uzlusiz jarayon, demokratiya mazmuni ekanligi ayon bo‘ladi. Ushbu jarayonni tabiiy huquqlarni jamiyat tomonidan yaratilgan pozitiv huquqda aks ettirishga, huquq ustuvorligi sifatida talqin qilish “demokratik huquqiy davlat” institutining tamal toshini qo‘ydi. Demokratik taraqqiyot fuqarolarning iqtisodiy, madaniy va boshqa manfaatlari asosida uyushgan hududlardagina samarali boshqaruvni ta’minalash, umumiy manfaatlarni shakllantirish mumkinligi hududlarning alohida siyosat subyekti ekanligini tasdiqladi. Umum davlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish esa, ushbu jarayonni tartibga solishga bo‘lgan intilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Эргашев И. Башқаришнинг ижтимоий фалсафий асослари. –Т.: Akademiya, 2006.
2. Аристотель. Сочинения. –М., 1983. Т.3.
3. Цицерон. Диалоги. О государстве. О законах. – М., Наука. 1966.
4. Гегель Г.В.Ф. Работы разных лет. –М., 1972. Т. 2.
5. Жўраев Т., Акабиров С. Миллий манбаатлар ва миллий хавфсизлик. Тошкент: Akademiya, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 т. 60000 сўз ва бирикмалар / С.Ф. Акабиров, Т.А. Аликулов, С.И.Ибрагимов ва бошқ.; З.М. Магруфов муҳаррирлиги остида. Т. 1. А-Р. – М.: Рус. яз., 1981.
7. Жўраев Б. Ўзбекистонда давлат ва жамият қурилишини эркинлаштириш. – Т.: Академия, 2007.
8. Филиппов В. "Укрепление вертикали власти" и деполитизация этничности в России // Свободная мысль - XXI, 11/2005.
9. Абдураззоқов С. Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари тизимининг ижтимоий-иқтисодий ва ташкилий худудий асоси // Ўзбекистон Республикаси мустақил давлат // Масъул муҳаррир А. Х. Саидов/. – Т.: Адолат, 1994.
10. Туровский Р. Ф. Центр и регионы: проблемы политических отношений. — М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2006. С.